



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 58 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
Abdullajonova Bashorat Olim qizi	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
Madumarov Jahongir Urinbayevich	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
Teshaboyev Akramjon Yuldashevich	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
Turdibekova Risolat Shermatovna	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
Tursunova Durdona	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
Yusupova Muxabbat Anatolevna	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
Рысова Галия Байбулатовна	



6-7 YOSHLI BOLALARNI SAVODGA TAYYORLASHDA DIDAKTIK KARTOCHKALAR ASOSIDAGI LEKSIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Tursunova Durdona

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Magistratura bo'limi
"Maktabgacha ta'lim" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada 6-7 yoshli bolalarni savodga tayyorlash jarayonida didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, leksik o'yinlarning bolalar lug'at boyligini oshirish, nutq faolligini rivojlantirish hamda savod o'rganishga tayyorlashdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari didaktik kartochkalar asosidagi o'yinlar bolalarning so'z boyligini kengaytirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: savodga tayyorlash, leksik o'yinlar, didaktik kartochkalar, lug'at boyligi, nutq rivoji, maktabgacha ta'lim.

Abstract: This article examines the pedagogical importance of using lexical games based on didactic cards in preparing 6-7-year-old children for literacy learning. The study analyzes the role of lexical games in enriching children's vocabulary, developing speech activity, and fostering readiness for reading and writing. The findings indicate that didactic card-based activities contribute to effective vocabulary acquisition, the development of coherent speech, and the enhancement of cognitive activity among preschool children.

Key words: literacy preparation, lexical games, didactic cards, vocabulary development, speech development, preschool education.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическое значение использования лексических игр на основе дидактических карточек в процессе подготовки детей 6-7 лет к обучению грамоте. Проанализирована роль лексических игр в расширении словарного запаса детей, развитии речевой активности и формировании готовности к освоению навыков чтения и письма. Результаты исследования показывают, что дидактические карточки способствуют эффективному усвоению новых слов, развитию связной речи и познавательной активности дошкольников.

Ключевые слова: подготовка к обучению грамоте, лексические игры, дидактические карточки, словарный запас, развитие речи, дошкольное образование.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga puxta tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim. Bola nutqining takomillashishi ko'p tomondan uning ruhiyatiga, sog'lom va tetik o'sishiga, axloqiy sifatlarining shakllanishiga hamda o'quv dasturini me'yorida o'zlashtirishiga uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, 6-7 yoshli bolalarning nutqini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish va ularni savod o'rganishga tayyorlash pedagogik jarayonning asosiy yo'nalishlaridan sanaladi. Ushbu jarayonda didaktik o'yinlar, xususan, kartochkalar asosidagi leksik o'yinlardan foydalanish samarali natijalarni ta'minlaydi, chunki o'yin bolalar uchun tabiiy faoliyat turi bo'lib, ular bilim va ko'nikmalarni qiziqarli shaklda egallaydilar.

O'yin - bolaning erkin faoliyati bo'lib, u shartli ("haqiqiy emas") deb tan olinsa-da, hech qanday moddiy foyda bilan belgilanmagan holda bolani to'liq egallab oladi. Didaktika (qadimgi yunoncha διδακτικός - "o'rgatuvchi") pedagogikaning ta'lim mazmuni va usullarini o'rganuvchi tarmog'i sifatida didaktik o'yinlarni nutqni, tafakkurni va aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi vosita sifatida ko'rib chiqadi. Didaktik kartochkalar bolalarning so'zlarni eslab qolish, taqqoslash, guruhlash va ulardan nutqda foydalanish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rasmlar, belgilar va yozuvlar bilan boyitilgan kartochkalar bolalarda qiziqish uyg'otadi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi.



Tadqiqot ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari

Tadqiqot ob'ekti: 6-7 yoshli (maktabgacha ta'lim yoshidagi) bolalarni savodga tayyorlash pedagogik jarayoni.

Tadqiqot predmeti: didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ushbu jarayondagi pedagogik ahamiyati va ularni qo'llash usullari.

Tadqiqotning maqsadi: 6-7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlardan foydalanishning pedagogik ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yin turlarini tasniflash;
- ularning bolalar lug'at boyligi va nutq faolligiga ta'sirini pedagogik jihatdan asoslash;
- aniqlangan muammolar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Leksik o'yinlar va didaktik kartochkalarning bolalar nutqini rivojlantirishdagi o'rni xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli jihatdan o'rganilgan. Saudiya Arabistonida olib borilgan tadqiqotda Saleh va Althaqafi ta'limiy o'yinlardan foydalangan tajriba guruhidagi bolalarning lug'at egallash ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lganini ko'rsatgan. Taghizadeh va hammualliflari raqamli o'yinlar, qo'shiqlar va fleshkartalarning Eron maktabgacha yoshdagi bolalari lug'at zaxirasiga ta'sirini tahlil qilib, vizual-o'yin vositalarining samaradorligini qayd etgan.

Nation o'zining nazariy tadqiqotida o'qish va tinglab tushunish uchun zarur bo'lgan lug'at hajmi masalasini o'rgangan va erta yoshdan boshlab tizimli lug'at boyitishning ahamiyatini ta'kidlagan. Saracho tahririda chop etilgan maktabgacha ta'lim bo'yicha qo'llanmada o'yin orqali o'qitish metodlarining bolalar kognitiv va nutqiy rivojlanishidagi roli keng yoritilgan.

Mahalliy pedagogika fanida Shodmonova maktabgacha ta'lim pedagogikasining nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqib, o'yin faoliyatini bolalar ta'limining yetakchi vositasi sifatida belgilagan. Karimova va Sunnatova bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyotini taklif etib, tuzilgan o'yin topshiriqlarining bolalar tafakkuriga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Kamilova maktabgacha pedagogika bo'yicha o'quv-uslubiy ishlanmasida didaktik vositalarning ta'lim sifatiga ta'sirini, Babayeva esa bolalar nutqini rivojlantirish metodikasida leksik mashqlarning o'rnini alohida ko'rib chiqqan.

Ko'rib chiqilgan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda asosan o'yinga asoslangan ta'lim usullarining empirik samaradorligi statistik tarzda isbotlangan, mahalliy adabiyotlarda esa ko'proq nazariy-uslubiy yondashuv ustunlik qiladi. Bu esa didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarni mahalliy sharoitda tizimli tatbiq etish va ularning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi - mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy-tahliliy metodologiyadan foydalanildi. Birinchi bosqichda mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy-pedagogik adabiyotlar tanlab olindi va ularning mazmuni qiyosiy tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli orqali xorijiy tadqiqotlarda qo'llanilgan o'yinga asoslangan metodlar mahalliy pedagogik amaliyot bilan solishtirildi, bu esa o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda tasniflash (klassifikatsiya) usuli qo'llanildi: didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlar maqsadi, tashkil etilish bosqichi va rivojlantiradigan ko'nikmasiga ko'ra guruhlariga ajratildi. Uchinchi bosqichda tizimli tahlil usuli orqali har bir o'yin turining pedagogik vazifasi adabiyotlar sharhida keltirilgan nazariy asoslar bilan bog'langan holda yoritildi. Ushbu metodologiya maqolaning amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan nazariy-pedagogik tadqiqot sifatidagi xususiyatini belgilaydi.

Didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlar

Didaktik kartochkalar yordamida tashkil etiladigan leksik o'yinlar bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Tahlil natijasida quyidagi o'yinlardan samarali foydalanish mumkinligi aniqlandi:

“Rasmga qarab so‘z ayt”

Tarbiyachi bolalarga turli predmetlar tasvirlangan kartochkalarni ko‘rsatadi. Bolalar rasm nomini aytadilar va u haqda gap tuzadilar. Ushbu o‘yin lug‘at boyligini kengaytirish bilan birga bog‘lanishli nutqni ham rivojlantiradi.

“Ortiqcha so‘zni top”

Kartochkalarda bir guruhga mansub bo‘lgan va bitta ortiqcha predmet tasvirlanadi. Bola ortiqcha predmetni aniqlab, nima uchun tanlaganini izohlaydi. Bu o‘yin mantiqiy fikrlash va so‘z ma‘nolarini tushunishga yordam beradi.

“So‘zni davom ettir”

Tarbiyachi bir so‘zni aytadi yoki kartochka ko‘rsatadi, bolalar esa shu mavzuga oid boshqa so‘zlarni ketma-ket aytadilar. Natijada mavzuga oid lug‘at zaxirasi mustahkamlanadi.

“Kim ko‘proq so‘z topadi?”

Ma‘lum bir harf yoki mavzu bo‘yicha bolalar imkon qadar ko‘proq so‘z aytishlari kerak. Bu o‘yin savodga tayyorgarlik jarayonida tovush va harflarni farqlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar sharhi va kuzatilgan pedagogik amaliyot asosida didaktik kartochkalar asosidagi leksik o‘yinlar maqsadi, rivojlantiradigan ko‘nikmasi va tashkil etilish bosqichiga ko‘ra tahlil qilindi. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

1-jadval: Didaktik kartochkalar asosidagi leksik o‘yinlarning maqsadi, rivojlantiradigan ko‘nikmalari va tashkil etilish bosqichlari

O‘yin nomi	Asosiy maqsadi	Rivojlanadigan ko‘nikma	Tashkil etilish bosqichi
“Rasmga qarab so‘z ayt”	Predmet nomini aytish va gap tuzish	Lug‘at boyligi, bog‘lanishli nutq	Boshlang‘ich
“Ortiqcha so‘zni top”	Guruhlash va izohlash	Mantiqiy fikrlash, so‘z ma‘nosi	O‘rta
“So‘zni davom ettir”	Mavzuga oid so‘z zanjiri tuzish	Lug‘at zaxirasini mustahkamlash	O‘rta
“Kim ko‘proq so‘z topadi?”	Harf/tovushga mos so‘z topish	Tovush-harf farqlash, savodxonlik	Yakuniy

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘yinlar bir-birini izchil to‘ldiradigan tizim sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq: boshlang‘ich bosqichda lug‘at boyligini shakllantiruvchi o‘yinlar (“Rasmga qarab so‘z ayt”), o‘rta bosqichda mantiqiy fikrlash va so‘z zaxirasini mustahkamlovchi o‘yinlar (“Ortiqcha so‘zni top”, “So‘zni davom ettir”), yakuniy bosqichda esa bevosita savodga tayyorlovchi, tovush-harf farqlashga yo‘naltirilgan o‘yin (“Kim ko‘proq so‘z topadi?”) qo‘llanilishi pedagogik jihatdan asoslidir. Bu tartib Tang ^[1] va Saleh hamda Althaqafi ^[2] tadqiqotlarida qayd etilgan “soddadan murakkabga” tamoyiliga mos keladi.

Tahlil shuningdek amaliyotda uchraydigan bir qator muammolarni ham aniqladi: ko‘pchilik tarbiyachilar didaktik kartochkalardan tasodifiy, tizimsiz tarzda foydalanadi; kartochkalar mazmuni ko‘pincha mahalliy til muhitiga moslashtirilmagan; o‘yinlarning bosqichma-bosqich qiyinlashtirilishi (differentsiatsiya) deyarli e‘tiborga olinmaydi. Ushbu muammolar Shodmonova ^[6] va Babayeva ^[9] ishlarida ham qisman qayd etilgan bo‘lib, ularning bartaraf etilishi ta‘lim sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, 6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o‘yinlardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu o‘yinlar bolalar lug‘at boyligini oshiradi, nutq faolligini rivojlantiradi hamda savod o‘rganish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘yinlarning bosqichma-bosqich, izchil tashkil etilishi ularning samaradorligini oshiradi.



Tahlil natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarni maktabgacha ta'lim dasturiga bosqichma-bosqich (sodda - o'rta - murakkab) tizimda kiritish;
- kartochkalar mazmunini mahalliy til muhiti va bolalar qiziqishlariga moslashtirib yangilab borish;
- tarbiyachilar uchun didaktik o'yinlarni tizimli qo'llash bo'yicha amaliy uslubiy qo'llanmalar va malaka oshirish seminarlarini tashkil etish;
- leksik o'yinlarning samaradorligini aniqlash uchun kelgusida amaliy-eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tang, J. T. (2020). Comparative study of game-based learning on preschoolers' English vocabulary acquisition in Taiwan. *Interactive Learning Environments*.
2. Saleh, A. M., & Althaqafi, A. S. A. (2022). The Effect of Using Educational Games as a Tool in Teaching English Vocabulary to Arab Young Children: A Quasi-Experimental Study in a Kindergarten School in Saudi Arabia. *SAGE Open*.
3. Taghizadeh, M., Vaezi, S., & Ravan, M. (2017). Digital games, songs and flashcards and their effects on vocabulary knowledge of Iranian preschoolers. *Studies*, 5(4), 156–171.
4. Nation, P. (2006). How large a vocabulary is needed for reading and listening? *Canadian Modern Language Review*, 63(1), 59–82.
5. Saracho, O. N. (2019). *Handbook of research on the education of young children* (4th ed.). Routledge.
6. Shodmonova, Sh. (2008). *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi (o'quv-uslubiy qo'llanma)*. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Karimova, B. M., Sunnatova, R. I. (2000). *Mustaqil fikrlash: o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish uslubiyoti*. Toshkent: Sharq.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.